



## QOVUNCHI MADANIYATINING DAVLATCHILIGIMIZ TARIXIDA TUTGAN O'RNI

**<sup>1</sup>Qurbonov Quvonchbek Yashin o'g'li**

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute talabasi

E-mail: qqurbonov770@gmail.com

Tel: +998904180521,

**<sup>2</sup>Eshmamatov Azamat Anvar o'g'li**

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute talabasi

E-mail: eshmamatovazamat3@gmail.com

Tel: +998971538082,

**<sup>3</sup>Meyliyev Farid Farhod o'g'li**

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute talabasi

E-mail: faridmeliyev73@gmail.com

Tel: +998917331343,

**<sup>4</sup>Islomov Diyorbek Sardor o'g'li**

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute talabasi

E-mail: diyorbekismoilov@gmail.com

Tel: +998910762122.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7466586>

### ARTICLE INFO

Received: 10<sup>th</sup> December 2022

Accepted: 20<sup>th</sup> December 2022

Online: 21<sup>th</sup> December 2022

### KEY WORDS

*Qovunchi madaniyati, Sirdaryo, Toshkent vohasi, G.V.Grigoryev, Sirdaryoning o'rta oqimi, shaharsozlik, sopol idishlar, Qovunchitepa xarobasi*

### ABSTRACT

*Ushbu ilmiy maqolada insoniyatning madaniy tarixida katta o'rin tutgan Qovunchi madaniyatining ahamiyati, insoniyat tarixidagi o'rni, bugungi kundagi o'rganilish tarixi, dastlab vujudga kelishi va butun O'rta Osiyo bo'ylab tarqalishi kabi ma'lumotlar keltirilgan.*

Qovunchi madaniyati miloddan avvalgi 2-asr – milodiy 6-asrga oid arxeologik madaniyat. Dastlab o'rganilgan joy – Qovunchitepa xarobasi nomidan olingan. [1] Qovunchi madaniyati Toshkent vohasi, Sirdaryoning o'rta oqimi va Farg'onaning shimoli-g'arbiy qismida tarqalgan. O'zbekiston hududlarida olib borilgan keng ko'lamli arxeologik izlanishlarga ko'ra, Qovunchi madaniyatining ta'sir doirasi so'nggi antik davridan boshlab Sirdaryoning o'rta havzalari doirasidan chiqadi. Endi u mintaqaviy tarixiy jarayon emas, balki butun O'zbekiston hududlarida yuz bergan tarixiy voqelikka aylanadi. Ilk o'rta

asrlarga kelganda esa u o'zbek etnogenezining asosiy muammolariga aylanadi, ya'ni turkiy etnik mansublik ustivor sharoitda shakllangan Qovunchi madaniyati milodning boshlaridan, aniqrog'i II-III asrlaridan boshlab Toshkent vohasi doirasidan chiqib, uning ta'sir doirasi kengayadi. 1934-37 yillarda Qovunchi madaniyati komplekslarida qazish ishlari olib borgan arxeolog G.V.Grigoryev uni 2 bosqich – Qovunchi 1 va Qovunchi 2 ga ajratgan (u Qovunchi 1 miloddan avvalgi 2-ming yillik oxiri va 1-ming yillik boshiga oid, Qovunchi 2 miloddan avvalgi 6-asr – milodning boshlariga oid, deb belgilagan). Arxeolog



A.I.Terenojkin Toshkent vohasi va So'g'ddagi yodgorliklarni o'rganib, Qovunchi 1 ni miloddan avvalgi 2-1-asrlarga, Qovunchi 2 ni milodning boshi – 6-asrga oid deb topdi. Arxeolog L.M.Levina esa sopol majmualarini o'rganib, Qovunchi 1 ni miloddan avvalgi 1 – milodiy 3-asr, Qovunchi 2 ni milodiy 4-5-asrga oid, deb belgilashni taklif etdi va Qovunchi madaniyatini yana Qovunchi 3 bosqichi (6-8-asr boshi)ga ajratadi. Dastlab Qovunchi madaniyati ta'sir etgan yodgorliklar Shimoliy Farg'ona hududlarida paydo bo'ladi. 1960-yilda Ye.D. Saltovskaya Asht hududida Qiziltepa yodgorligining antik davr qatlamlaridan sirtiga qizil angob berilgan, dastasi hayvon shaklli krujkalarni uchratadi[2]. Huddi shunday zoomorf ruchkali krujkalar Asht yaqinidagi Mug' qo'rg'onlari va qurumlarida uchraydi[3] Shoshtepani o'rganish natijasida birinchi marta madaniy qatlamlarning aniq stratigrafiyasi belgilandi. Bu esa Qovunchi madaniyati aniq davrini (Qovunchi 1 miloddan avvalgi 2-1-asrlar; Qovunchi 2 ikki bosqichga bo'linib, uning 1-bosqichi milodiy 1-4-asrlar, 2-bosqichi – 5-6-asrlar) belgilashga asos bo'ldi. Qovunchi madaniyati Toshkent vohasidagi qadimgi dehqonchilik bilan shug'ullangan tub aholi madaniyati (q. Burganli madaniyati) asosida «xalqlarning buyuk ko'chishi» davrida Toshkent vohasiga kirib kelgan sarmatlar, hunnlar, usun va boshqa xalqlarning etnik madaniyati ta'sirida rivojlangan. Toshkent vohasi Qovunchi madaniyati shakllanishining asosiy markazi bo'lgan. Qovunchi madaniyatiga xos yodgorliklar Shimoliy Farg'onada, Qoramozor tog' tizmalarining janubi-g'arbida keng tarqalgan. Ular Tirkashtepa, Chugexona, Langari Xojiyon, Tangi Surx, Xo'jai Suf

qabristonlari bo'lib, ularda akademik N.N. Negmatov boshliq Tojikiston arxeologlari keng ko'lamli arxeologik qazishma ishlarini olib borgan Qovunchi majmualarida me'morlik an'alariga asoslangan, yuksak mudofaa inshootlariga ega bo'lgan shaharsozlik, sopol idishlar va haykalchalar shaklining o'ziga xos xususiyatlari tarkib topgan. Qovunchi madaniyati vohada shaharlar va shahar madaniyati paydo bo'lishi hamda irrigatsiya sistemalarining takomillashishi asosida dehqonchilikning yana-da rivojlanish davrida tarqalgan. Qovunchi majmualari asosida Toshkent shahar madaniyati paydo bo'lgan va yanada rivojlana boshlagan. O'sha davrdagi aholi maskanlari ark va uning atrofida 1 yoki 2 qishloqdan iborat bo'lib, ularning ayrimlari mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Shaharlar hunarmandchilikning har turli kasb-hunarlarini qaror topgan joy va savdo-sotiqning asosiy tayanch manzili hisoblangan. Metallga ishlov berish (temirchilik, jez asboblari quyish) ancha rivojlangan. Kulolchilikda sopol idishlar yasash asosiy o'rin egallagan, ularning turi, shakli ko'paygan. Sopol idishlarning tagi tekis bo'lgan. Qovunchi 1 da kuvacha, tovoq, qizg'ish yoki bo'g'iq qo'ng'ir rang berilgan sopol idishlar; Qovunchi 2 da quloqli xurmachalar, bandlari hayvon shaklidagi turli idishlar va xurmachalar uchraydi. Qovunchi madaniyatiga xos idish qopqoqlari, ko'ralar, shuningdek, diniy marosim buyumlari, 2 boshli qo'chqor yoki shoxli ho'kiz boshlari shaklida yasalgan o'choq poy-tagliklari topilgan, ulardan tutatqi solinadigan va qurbonlik qilinadigan idish sifatida ham foydalanilgan (yana q. Amaliy bezak san'ati). Xo'jaligi dehqonchilik va yaylov chorvachiligiga asoslangan qovunchiliklar jamiyatida aholi



dehqonchilik ma'budalari, olov va ajdodlarga sig'inishgan. G'arbda Qovunchi madaniyatining chorvadorlari Zarafshon vodiysi va Qarshi vohasigacha kirib boradilar. Qovunchi madaniyatining ta'siri ayniq-sa, markaziy va G'arbiy Sug'd adir va tog' oldi rayonlarida keng tarqalganini ko'ramiz. Bu haqda Oqjar, Sazag'on, Qizilqir, Lavandak, Xazora qo'rg'onlari dalolat beradi[4] 1960-yil bahorida arxeolog O.V. Obelchenko tomonidan uchta qo'rg'on ochib ko'rilgan. Ular sharqdan g'arbga mo'ljal olgan katakombalar qabrlari va janubdan shimolga yo'nalish olgan ayvonli qabrlar bo'lib, katakombalar lahatiga kirish teshigi xom g'ishtlar bilan berkitilgan. Qabrlarda boshi sharqqa qaratilgan odam suyaklari yog'och tobutlarga joylashtirilgan. Skeletlar bosh tomoniga 2-3 tadan sopol idishlar, bir quloqli ko'za va krujkalari qo'yilgan. Ayvonli qabrlarga qo'yilgan sopol idishlar kulolchilik charxida, katakombalar qabrlar sopol idishlari esa qo'lda yasalgan. O.V. Obelchenko ayvonli qabrlarini o'troq aholiga tegishli deb hisoblab, ularning sanasini milodning boshlari bilan belgilaydi, katakombalar qabrlarini esa chorvadorlarga tegishli ekanini ta'kidlab, ularning davriy sanasini II-IV asrlarga tegishli ekanini asoslaydi[5] Quyimosor stansiyasidan janubi-sharqda, Kampir devor yo'nalishi hududida Lavandak qishlog'i joylashgan. Qishloqning 3 km. cha janubidan Karnob cho'li boshlanadi. Cho'l hududida Lavandak nomi ostida 130 dan ortiq tuproq qo'rg'onlar ikki guruh bo'lib joylashgan. Ana shu Lavandak qabristonida O.V. Obelchenko V.A. Shishkin bilan birgalikda 1952-yili arxeologik qidiruv ishlarini olib boradi, kelgusi yil bahor oyida esa mozor-qo'rg'onlarni qazishni boshlaydi. Har ikki

guruh qo'rg'onlar ichidan dastlab bittadan qo'rg'on ochilgan. Birinchi guruh qo'rg'on ayvonli lahat tuzilishidagi qabrlar bo'lib, ularning lahat kamerasida ikkitadan skelet, erkak va ayol joylashtirilgan. Ayol skeleti boshi bilan shimolga, erkak esa janubga qaratib ko'milgan. Erkak bosh tomonida xum parchalari, sopol chilimdon va kamar to'qasi, ayol bosh tomonida esa charxda yasalgan qadah, yana qandaydir zanglab ketgan temir buyum, tos suyagi ostidan temir buyum topilgan. Ikkinchi guruh qo'rg'onlari katakombali qabrlar bo'lib, lahat kamerasining teshigi xom g'ishtlar bilan berkitilgan. Qabrdan pachoqlangan skeletdan tashqari xum parchalari, chilimdon, ko'za va angoblangan xurmacha, kul va ko'mir parchalari, temir pichoq, qo'yning oldingi oyog'i va kurak suyagi topilgan. Yana bir katakombali qabrdan (boshi janubga qaragan erkak), skelet yonidan temir qilich, bosh tomonidan xum va chilimdon, qo'yning oldingi oyog'i va kurak suyaklari, temir pichoq topilgan. Bulardan tashqari, Lavandak qabristonidan yana 7 ta qo'rg'on ochib o'rganilgan. Ular ayvonli va katakombalar qabrlardan iborat bo'lib, lahat qabr ayvonining g'arbiy devori ostida joylashgan. Bunday tartib O'rta Osiyo sharoitida bronza davridan, Sopolli madaniyatidan ma'lum bo'lib, antik davrida O'rta Osiyoda keng tarqalgan[6]. Lavandak qabristonining qabr kamerasi uning ayvonini g'arbiy devori ostida joylashgan, ayvon keng va lahatga 2-3 pillapoya bilan tushilgan. Shunday ayvonli lahat qabrlar Quyi Volga va Janubiy Ural dashtlarida keng tarqalgan[7] Milodning dastlabki asrlarida (4-asrdan) Qovunchi madaniyati janubga tomon tarqalib, So'g'd, Qashqadaryo hududidagi mahalliy madaniy majmualarga



ta'sir eta boshlagan. Bu esa qovunchiliklarning janubga ko'chib o'tganligidan dalolat beradi. 6-asrga kelib, O'rta Osiyoning markaziy rayonlaridagi vohalar bilan iqtisodiy va savdo aloqalarining kuchayishi hamda umumso'g'd madaniyati ta'sirida Toshkent vohasida Qovunchi madaniyati 6-asrdan o'ziga xos alomatlarini yo'qotdi, sekin-asta

butun Movarounnahrda xos yagona madaniyat vujudga kela boshladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, milodiy asr boshlarida nafaqat O'rta Osiyo balki butun jahon madaniy hayotida katta orin tutgan Qovunchi madaniyati yuzaga keldi. dastlar Sirdaryo bo'ylarida yuzaga kelgan ushbu madaniyat ketying davrlarda butun O'rta Osiyo hududini qamrab oldi.

## References:

1. O'zbekiston Milliy Ensklopediyasi/Toshkent.2005.
2. Saltovskaya Ye.D. Raskopki na Kзыltere v 1960 g. Arxeologicheskiye raboty v Tadjikistane. Выр. VIII. 1960, S. 49.
3. Litvinskiy B.A. Izucheniye kurumov v severo-vostochnoy chasti Leninabadskoy oblasti v 1957 g. V sb. "Arxeologicheskiye raboty v Tadjikistane v 1957 g." Выр. 5, Stalinabad, 1959. S. 128-129
4. Obelchenko O.V. Mogilnik Akdjartere. IMKU, выр. 3. Tashkent, 1962, S. 58-70.
5. Obelchenko O.V. Mirankulskiye kurgаны. IMKU, Выр. 8, Tashkent, 1969, S. 63-65.
6. Askarov A. Sapallitepa. Tashkent, 1973, S. 42-70;
7. Askarov A -Drevnezemledelcheskaya kultura epoxi bronzы yuga Uzbekistana. Tashkent, 1977, S. 38-63.16.Salnikov K.F. Drevneyshiye pamyatniki istorii Urala. Sverdlovsk, 1952, S. 95